



VASHINGTON VA TOSHKENT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR MISLI KO‘RILMAGAN YUKSAK DARAJAGA CHIQDI

Amerika va Kanada OAVlari hamda ekspertlari
O‘zbekiston va AQSH Prezidentlarining 23-dekabr
kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqoti haqida



O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-dekabr
kuni AQSH Prezidenti Donald Tramp bilan telefon orqali muloqoti
Amerika va Kanada ommaviy axborot vositalari, AQSH ekspert-tahlil
doiralari vakillarining e‘tiborini tortdi.

Xususan, yetakchi elektron va bosma
nashrlar, “The Washington Post”, “Investing.
com”, “Bloomberg”, “Reuters”, “NewsMax”,
“The National Desk”, “The Times of Central
Asia” axborot agentliklari, Kanadaning “The
Canadian Press” va “CityNews” nashrlari

Prezident Donald Tramp Qozog‘iston va
O‘zbekiston yetakchilariga kelgusi yilda AQSH
shafeligida bo‘lib o‘tadigan “Katta yigirmatalik”
(G20) sammitiga taklifnoma yuborishini ma‘lum
qilgani haqida yozgan.

Xabarda ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston va

Qozog‘iston “Katta yigirmatalik”ka a‘zo emas,
biroq AQSH bu respublikalarni taklif etishga
qaror qilgan. Chunki “Har ikki davlat bilan
munosabatlar ajoyib” (Donald Trampning
ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy bayonotiga havola).

“Donald Tramp ma‘muriyati yuqori
texnologiyali qurilmalar, jumladan, smartfonlar,
elektromobillar va qiruvchi samolyotlar uchun zarur
bo‘lgan nodir metallarni qidirishni faollashtirib,
ulkan foydali qazilmalar zaxiralarga ega bo‘lgan
va dunyo uranining taxminan yarmini ishlab
chiqaradigan Markaziy Osiyoga ko‘proq e‘tibor
qaratmoqda”, deb yozadi “The Washington Post”.

“Bloomberg” axborot agentligining
yozishicha, bunday qaror Vashingtonning
o‘tib borayotgan strategik manfaatlari va uzoq
muddatli aloqalarni yanada mustahkamlashga
intilishi bilan bog‘liq.

Amerikaning “Investing.com” iqtisodiy
nashri, “Reuters” va “NewsMax” axborot
agentliklarining xabar berishicha, Donald
Trampning O‘zbekiston va Qozog‘iston
rahbarlari bilan telefon orqali muloqotlari davom
etayotgan mojarolarda tinchlik o‘rnatish hamda
AQSH va Markaziy Osiyoning ikki yirik davlati
o‘rtasidagi savdo va hamkorlikni rivojlantirish
masalalariga qaratilgan.

► Davomi 2-betda

Prezident archasi



BOLAJONLAR QALBIGA QUVONCH ULASHUVCHI BAYRAM

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida
“Prezident archasi” tadbiri bo‘lib o‘tdi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan ushbu
tantanali tadbirga Mehribonlik uylari, maxsus maktab-internatlar, oilaviy bolalar uylari kichkintoylari, alohida
parvarishga muhtoj bolalar taklif etildi.

Turli chiroqlar, sharlar, bayramona
bezatilgan archa atrofida yangrayotgan quvnoq
kuy-qo‘shiqlar dillarga ilqlik bag‘ishlaydi.
Yosh ijodkorlarning rangtasvir asarlari

yig‘ilganlarni bir zum san‘atning shehri olamiga
osho etadi. Bu yerda har bir jism bolalar
qalbida orzu va umidni ifoda etayotgandek
go‘yo. Alohida e‘tibor va g‘amxo‘rlikning

yorqin ifodasi bo‘lgan bu tadbir o‘g‘il-qizlarni
insonparvarlik va olijanoblik ostida birlashtirdi,
mehr ulashdi.

► Davomi 2-betda

Tahlil va taqqos

2025-yil O‘zbekiston uchun shunchaki navbatdagi taqvim yili emas,
balki “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlarning miqdordan
sifatga o‘tish davri bo‘lib tarixda qolmoqda.

O‘tayotgan yil iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy himoyani
kuchaytirish va xalqaro maydondagi pozitsiyalarni mustahkamlash yo‘lida
muhim sinov va zafarlar yili bo‘ldi.



ANIQ VA ADOLATLI MAQSDALAR

ISHONCH HAMDA MUSTAHKAM IRODAGA ASOSLANADI

Jumladan, tashqi geosiyosiy tebranishlarga
qaramay, ushbu yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti
barqaror o‘shish sur‘atlarini saqlab qoldi. Yalpi
ichki mahsulot o‘shishi qariyb 6 foiz atrofida
bo‘ldi. Yurtimiz aholisi yiliga o‘rtacha 700-
800 ming kishiga ko‘payib borayotgan, mehnat
bozoriga har yili 500-600 ming yosh kirib

kelayotgan bir pallada bu katta ko‘rsatkichdir.
Buncha odamni o‘qitish, kasb-hunarli
qilish, ularga ish topib berish o‘z-o‘zidan
bo‘lmaydi, albatta. Ularni ro‘yobga chiqarish
uchun muntazam ishlaydigan tizim, kafolatli
investitsiya va infratuzilma kerak.

► Davomi 3-betda

TRANSPORT SOHASI — IQTISODIY RIVOJLANISH DRAYVERI

Yil sarhisobi

2025-yil mamlakatimiz transport kompleksini
barqaror rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar
va strategik qarorlar davri bo‘ldi. Infratuzilmani
modernizatsiyalash, transport xavfsizligini
oshirish, fuqarolar va biznes uchun qulayliklarni
ta‘minlashga asosiy e‘tibor qaratildi. Bu chora-
tadbirlar transportning barcha asosiy turlarini
qamrab oldi. Bunda asosiy e‘tibor milliy loyihalarga,
harakatlanuvchi tarkibni yangilashga, sanoatni
boshqarish samaradorligi va
taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga
imkon beruvchi raqamli
yechimlarni joriy qilishga
yo‘naltirilgan.



2025-yil logistika yo‘laklarini
rivojlantirish va o‘zgaruvchan tashqi
iqtisodiy sharoitda yurtimizning tranzit
salohiyatini mustahkamlash muhim
faoliyat yo‘nalishi bo‘ldi. Parallel
ravishda baxtsiz hodisalarni kamaytirish,

normativ-huquqiy bazani takomillashtirish
va mintaqaviy tarmoq dasturlarini
qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tadbirlar
amalga oshirildi. Aviatransport sohasida
yo‘nalishlarni subsidiyalash va aeroport
tarmog‘ini rivojlantirish, yo‘l sohasida

esa trassalarni standart holatga keltirish
ustuvor yo‘nalishlar etib belgilandi.
Integratsiyalashgan yondashuv sanoatning
barqarorligini ta‘minlash va keyingi
o‘shish uchun asos yaratish imkonini
berdi. Transport sohasini rivojlantirish,

ya‘ni O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning
logistika markaziga aylantirish ulkan
strategiyaning bir qismi hisoblanadi.

► Davomi 4-betda

O‘ZBEKISTON TIBBIYOT
XABIGA AYLANMOQDA

5

Qashqadaryoning
YUKSALAYOTGAN SAYYOHLIK SALOHİYATI

6



Munosabat

Joriy yil 23-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp o‘rtasida bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot ikki davlat munosabatlarida izchillik va barqarorlik mustahkam o‘rin olganini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu muloqot mazmun-mohiyati bilan faqat navbatdagi diplomatik aloqa emas, balki O‘zbekiston – AQSH sherikligi sifat jihatidan yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston – AQSH: STRATEGIK IZCHILLIKDAN AMALIY HAMKORLIKKA



Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi ijrochi direktori

Subhat yakuni AQSH Prezidenti tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekiston — AQSH munosabatlariga “yuqori darajada” deb berilgan baho bilan yanada mustahkamlandi. Bu e’tirof yetakchi ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

Eng muhim jihat shundaki, muloqot davomida avval erishilgan kelishuvlarning amaliy ijrosi atroflicha muvokama qilinib, strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan aniq ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi. Bu esa O‘zbekiston — AQSH munosabatlarining deklarativ bayonotlar doirasidan chiqib, institutsional va iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan barqaror hamkorlik modeliga o‘tayotganini ko‘rsatadi.



So‘nggi yillarda davlat rahbarlari darajasidagi siyosiy muloqotning faollashuvi o‘zaro ishonch muhitini shakllantirib, iqtisodiy va investitsiyaviy qarorlar qabul qilish uchun mustahkam siyosiy poydevor hozirladi. Bugun AQSH O‘zbekiston uchun texnologiyalar, sarmoya, innovatsiyalar va inson kapitali sohalarida muhim strategik sherik sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Amerika kompaniyalari ishtirokida turli sohalarida amalga oshirilayotgan yirik qo‘shma loyihalar investitsiya hajmini oshirish bilan birga, mahalliy ishlab chiqarishni modernizatsiya

qilish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar zanjirini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda hududlar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlik mexanizmlarining yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy diplomatiyani markazdan joylargacha kengaytirib, viloyatlar darajasida yangi investitsiya va sanoat loyihalarini ilgari surish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochmoqda. Bu esa islohotlarning faqat markaziy darajada emas, balki hududlar bo‘yicha ham chuqurlashib borayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi bosqichda O‘zbekiston — AQSH hamkorligidagi qator strategik yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Birinchidan, infratuzilma va tranzit salohiyati masalasi. Dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, O‘zbekiston mintaqadagi muhim transport-logistika tarmog‘idir. AQSH bilan hamkorlik Transkaspiy yo‘lagini rivojlantirish, “Sharq — G‘arb” transport yo‘laklarini kengaytirish, temir yo‘l va port infratuzilmasini integratsiyalashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya va sanoat modernizatsiyasi. O‘zbekiston 2030-yilgacha energiya balansida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 50 foizdan oshirishni maqsad qilgan. Quyosh va shamol energetikasi, energiyani saqlash texnologiyalari hamda vodorod yechimlari bo‘yicha AQSH bilan hamkorlik sanoatni yangi texnologik bosqichga olib chiqishi mumkin.

Uchinchidan, mineral resurslarni chuqur qayta ishlash masalasi. Bu xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish, qo‘shilgan qiymat zanjirini mamlakat ichida shakllantirish, yangi ish o‘rinlari ochish va texnologik mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, qiymat mamlakat ichida qolishi lozim.

To‘rtinchidan, inson kapitali. “Inson kapitali — eng katta sarmoya” tamoyili O‘zbekiston — AQSH hamkorligida alohida o‘rin tutadi. AQSH universitetlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va davlat boshqaruvi institutlari bilan hamkorlik mamlakatimiz uchun zamonaviy bilim, ilg‘or tajriba va raqobatbardosh kompetensiyalar bazasini shakllantirishda g‘oyat muhim.

Shu bilan birga, xavfsizlik masalalari ham kun tartibidan tushgani yo‘q. Afg‘onistondagi vaziyat mintaqaviy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu borada AQSH bilan muloqot va hamkorlik mintaqada xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirishga ijobiy hissa qo‘shishi mumkin.

Oliy darajadagi telefon orqali muloqot O‘zbekiston — AQSH munosabatlaru chuqur mazmunga ega ekani, strategik barqarorlik va aniq amaliy natijalarga qaratilgan sheriklikka aylanganini yana bir bor namoyon etdi. Bu munosabatlarni endi faqat siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmay, iqtisodiy o‘shish, texnologik yangilanish va inson taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzoq muddatli hamkorlik modeli sifatida shakllanib bormoqda.

SIYOSAT

VASHINGTON VA TOSHKENT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR MISLI KO‘RILMAGAN YUKSAK DARAJAGA CHIQDI

Boshlanishi 1-betda

“The National Desk” nashri Qo‘shma Shtatlar kelasi yili G20 sammitiga mezbonlik qilishini ma’lum qiladi va Donald Trampning so‘zlaridan iqtibos keltiradi: “Biz ikkala yetakchiga Mayamida bo‘lib o‘tadigan ushbu juda muhim tadbirda mehmon sifatida bizga qo‘shilish uchun taklifnoma yuboramiz!”.

“The Times of Central Asia” nashri ikki tomonlama aloqalar faollashgani va aviatsiya, avtomobilsozlik, tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilma, energetika va texnologiyalar kabi sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani, ushbu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmlari, jumladan, Amerika — O‘zbekiston ishbilamonlar va investitsiya kengashi hamda rejalashtirilayotgan qo‘shma Investitsiya jamg‘armasi tashkil etilganini qayd etgan.

Kanadaning “The Canadian Press” markaziy nashri va Kanadaning “CityNews” axborot agentligi ta’kidlashicha, “Bu strategik qadam ma’muriyat Donald Trampning birinchi muddati tasqi siyosatining asosiy yutug‘i bo‘lgan tashabbusni qayta tiklashga urinayotgan bir paytda amalga oshirildi. Xususan, uning jamoasi Isroil va Birlashgan



Arab Amirliklari, Bahrayn va Marokash o‘rtasida diplomatik va savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Bu safar “strategik e’tibor Markaziy Osiyo mintaqasiga, xususan, O‘zbekiston va Qozog‘istonga qaratildi. Chunki AQSH muhim minerallarni yetkazib berishning barqaror zanjirlariga jiddiy e’tibor qaratgan”.

Ushbu tashabbusning yetakchi ommaviy axborot vositalarida yoritilishi uning keng siyosiy va strategik kontekstini tushunishga urinishlar bilan birga kechdi. Shu nuqtayi nazardan, amerikalik tahlilchilar va ekspertlarning ekspert baholari alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Ular O‘zbekiston va

G20 kun tartibida ishtirok etish O‘zbekiston uchun moliyalashtirish va texnologiyalardan foydalanish, eksport tarmoqlarini ilgari surish, energetika, infratuzilma va sanoatga strategik investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha eng yirik iqtisodiyotlar bilan teng muloqot qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochadi.

Jon XYORBST,

“Atlantic Council” tahliliy markazi huzuridagi Yevroosiyo markazi katta direktori, AQSHning O‘zbekistondagi sobiq elchisi:



— Samarqandda “C5+1” formatining yaratilishi AQSHning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarini rivojlantirishda muhim signal bo‘ldi. Prezident Donald Tramp va mintqa mamlakatlari yetakchilari ushbu formatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Noyabr sammiti AQSHning O‘zbekiston, Qozog‘iston va mintaqaning

Ayub AYUBI,

“Project C.U.R.E.” xayriya jamg‘armasi direktori:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoni xalqaro ahamiyatga molik sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun mintaga anchadan buyon muhtoj bo‘lgan yetakchidir. O‘zbekiston Prezidentining AQSH yetakchisi, dunyoning boshqa yetakchilari bilan yo‘lga qo‘ygan munosabatlari diqqatga sazovor va butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning G20 sammitida ishtirok etishga taklif etilgani juda muhim signaldir. Bunday muloqotlar va hamkorlik shakllari Markaziy Osiyoga xalqaro qiziqishning ortishi, investitsiyalarni jalb etish, uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirish va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Yelena SON,

Amerika — O‘zbekiston savdo palatasi (AUTP) ijrochi direktori:



— O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentlari o‘rtasida navbatdagi telefon muloqoti bo‘lib o‘tgan haqidagi xabarni AUTP a’zolari juda ijobiy qabul qildi. Toshkent va Washington o‘rtasidagi oliy darajadagi muloqot to‘g‘ridan to‘g‘ri ishonchli hamkorlikning ikkinchi namunasi bo‘ldi. Aloqalarning bunday shakli ikki tomonlama munosabatlar uchun barqaror va oldindan aytilish mumkin bo‘lgan asosni shakllantiradi hamda ham Amerika, ham

Gregori KUPLI,

Xalqaro strategik tadqiqotlar assotsiatsiyasi prezidenti:

— O‘zbekiston va AQSH Prezidentlarining 23-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqoti Donald Tramp ma’muriyatining Markaziy Osiyo mintaqasiga e’tibori ortib borayotganini ko‘rsatdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan O‘zbekiston — AQSH munosabatlarini nafaqat jadal rivojlantirish, balki muhim tarmoqlarning keng doirasini qamrab olgan holda sifat jihatidan yangi mazmun kasb etdi.

Prezidentlar 2025-yil noyabr oyida “C5+1” sammiti doirasida o‘tgan uchrashuvda erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi, O‘zbekiston — AQSH munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko‘rib chiqdi.

Prezidentlar ikki tomonlama siyosiy aloqalar, eng avvalo, oliy darajada faol rivojlanib borayotgani, bu mamlakatlarimiz o‘rtasidagi

Qozog‘istonning G20 sammitida ishtirok etishini bir martalik diplomatik ishora sifatida emas, balki mintaqaviy va jahon siyosatidagi chuqur o‘zgarishlarning in’ikosi sifatida ko‘rmoqda.

Jumladan, respublikachi senator Siv Deyns “X” platformasida quyidagilarni e’lon qildi:

“AQSH, Qozog‘iston, O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo o‘rtasidagi yaqin munosabatlarni mustahkamlash nafaqat maqsadga muvofiq, balki barcha manfaatdor tomonlar uchun strategik zaruratdir.

Men AQSH Prezidenti Donald Tramp va uning ma’muriyatini ushbu voqealarni tan olgani va Amerikaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlariga ustuvor ahamiyat bergani uchun olqishlayman”.

AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili, AQSHning Hindistondagi elchisi Serjio Gor (“X” platformasi): “Bugun Prezident D.Tramp telefon orqali O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan muloqot qildi. D.Tramp tinchlik va farovonlik tarafdori bo‘lgan Prezident ekani ta’kidlandi. Men bunga to‘liq qo‘shilaman! AQSH Prezidenti rahbarligida son-sanoqsiz mojaralar to‘xtadi va dunyo yaxshilandi!”.

O‘zbekiston biznesiga sezilarli amaliy foyda keltiradigan qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentlarining biznesni qo‘llab-quvvatlash va tasqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasidagi kuchli yetakchiligi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlari ko‘p jihatdan bir-biriga mos keladi va bir-birini to‘ldiradi. Ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun mustahkam asos bo‘ladi.

G20 sammitida ishtirok etish taklifi muhim siyosiy-iqtisodiy signal bo‘lib, Toshkentning xalqaro subyektligini oshiradi va investorlarning islohotlarga ishonchini mustahkamlaydi.

G20 kun tartibida ishtirok etish O‘zbekiston uchun moliyalashtirish va texnologiyalardan foydalanish, eksport tarmoqlarini ilgari surish, energetika, infratuzilma va sanoatga strategik investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha eng yirik iqtisodiyotlar bilan teng muloqot qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochadi.



strategik sheriklikni yangi bosqichga ko‘tarish va uni amaliy mazmun bilan boyitish imkonini berganini ta’kidladi.

Amerika — O‘zbekiston ishbilamonlar va sarmoyadorlar kengashining tashkil etilishi munosabatlarning har ikki tomon uchun yuksak ahamiyatidan dalolat beradi.

“Dunyo” AA

BOLAJONLAR QALBIGA QUVONCH ULASHUVCHI BAYRAM

Boshlanishi 1-betda

— Respublikamizning barcha viloyatlarida “Prezident archasi” tadbirlari ko‘tariladi kayfiyatda boshlandi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bo‘lim boshlig‘i Laylo Fayzimurodova. — 29-dekabrgha davom etishi ko‘zda tutilgan tadbir yosh avlod kamoliga e’tiborning yorqin ifodasidir. Poytaxtimizda o‘tkazilayotgan “Prezident archasi”ga 1000 dan ortiq bola taklif etilgan. Bu yilgi tadbir yangicha mazmun kasb etmoqda. Bolalarning qiziqishi, dunyoqarashidan kelib chiqib sahnalashtirilgan, orzu, ishonch va poklikni ifoda etuvchi tomoshalar ular qalbiga ma’naviy voqelik bo‘lib singmoqda. Yangi yil mo‘jizalari, turli erak qahramonlari ishtirokidagi o‘yin va quvnoq kuy-qo‘shiqlar bolajonlar kayfiyatiga ko‘tariklilik bag‘ishladi.

Mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Bola huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ta’minlash borasida salmoqli sa’y-harakatlar amalga oshirilayotir. Ijtimoiy islohotlar, ayniqsa, bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng qamrovli dasturlar bunga misoldir. Joriy yilda “Prezident archasi” tantanalaru yuqori saviyada tashkil etilishi zamirida ham ana shu insonparvarlik, eugu va xayrli maqsadlar mujassam.



— Bolajonlarimiz ota-onalari bilan birgalikda bayram tantanalarida ishtirok etmoqda, — deydi “Imkon” reabilitatsiya markaziga ega davlat ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori Ozoda Ulug‘ova. — Ular juda xursand. Yorug‘ chiroqlar, rang-barang sharlar, erak qahramonlari chiqishlari ular qalbiga quvonch ulashdi. Yangi yil chindan sehrli bayram. Buni bolajonlar to‘liq his qiladi.

Bayram quvonchi, bolalarning shodon kulgusi yangi yilning asl mohiyatini — umid va mehr, birdamlik, hamjihatlik g‘oyalarni namoyon etdi. Bu bayram bolalar qalbida ezgulikka ishonchni mustahkamlab, ularni bir-biriga mehr ko‘rsatish va quvonchni baham ko‘rishga undadi. Tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga ega qiziqarli tomoshalar, quvnoq kuy-qo‘shiqlar ota-onalar kayfiyatiga xushnudlik ulashdi.

Jami 11 ming 125 dona shunday sovg‘a shakllantirilib, ular tarkibiga bolalarning ta’lim olishi va bo’sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga xizmat qiluvchi 24 nomdagi o‘quv qurollari, shuningdek, bolajonlar sevib iste’mol qiladigan 34 nomdagi shirinlik mahsulotlari kiritildi.

— O‘g‘lim Husanjon Abdujalilov 10 yoshda, — deydi Shahnoza Rafiqova. — U har yili shu bayramni juda orziqib kutadi. Taassurotlari haqida gapirishdan charchamaydi. Farzandimning qalbidagi quvonchni ko‘rib o‘zim ham xursand bo‘laman.

Mazkur bayram tadbirlarini mazmunli, ko‘tarinki ruhda va yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tegishli vazirlik hamda idoralar bilan hamkorlikda tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, bolalar uchun bayramona muhit yaratish, ularni sifatli sovg‘alar bilan quvontirish hamda har bir bolaning e’tibordan chetda qolmasligini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bugungi kunga kelib, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, “SOS — bolalar mahallalari”, oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan, shuningdek, ota-onaga qaramog‘idan mahrum bolalar hamda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida halok bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining farzandlari uchun maxsus Prezident sovg‘alari tayyorlandi.

Jami 11 ming 125 dona shunday sovg‘a shakllantirilib, ular tarkibiga bolalarning ta’lim olishi va bo’sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga xizmat qiluvchi 24 nomdagi o‘quv qurollari,





ANIQ VA ADOLATLI MAQSADLAR ISHONCH HAMDA MUSTAHKAM IRODAGA ASOSLANADI



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, mazkur yo'nalishda aniq dasturlar qabul qilindi. Oldinga qo'yilgan ambitsiyali dasturlar ro'yobi yo'lida tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, oldinga boshlovchi katta kuchga aylandi.

Raqamlar ko'p narsadan dalolat beradi. Olaylik, keyingi sakkiz yilda yalpi ichki mahsulot 2 karra oshib, o'tgan yili 115 milliard dollarga, eksport hajmi 26 milliard dollarga yetdi. Yil yakuni bilan yalpi ichki mahsulotimiz 130 milliard dollarga yetishi kutilyapti. Oltin-valyuta zaxiralарimiz tariximizda ilk bor 48 milliard dollardan oshdi, o'tgan sakkiz yilda yurtimizga qariyb 130 milliard dollar xorijiy investitsiya kirib kelgani xalqimiz farovonligiga xizmat qilmoqda. Bularning barchasi islohotlar samarasi, taraqqiyotimizning mustahkam kafolati, nufuzli moliya institutlari va xorijiy kompaniyalarning yuksak ishonchidir.

Ko'z o'ngimizda minglab zamonaviy korxonalar, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlari qad rostlayotir. E'tibor bering, bu yil jami 35 milliard dollar investitsiya evaziga 9 mingga yaqin yangi korxona, xizmat ko'rsatish majmuasi barpo etildi. Shu yilning 9 oyi mobaynida 4 milliard dollarlik 79 ta yirik obyekt ishga tushirildi. O'tgan davrda birgina kichik va o'rta tadbirkorlar soni 2 karra ko'paydi. Bugun ushbu tarmog'da 10 milliondan ortiq inson mehnat qilib, daromad topmoqda. Eng muhimi, shu yilning o'zida chetda ishlayotgan 700 ming mehnat muhojiri yurtimizga, o'z oilasi bag'riga qaytdi.

O'zbekiston dunyoga keng ochilganidan so'ng xorijlik sayyohlar soni o'tgan yili 10 million kishidan, turizm xizmatlari eksporti esa 3 milliard dollardan oshdi. Tariximiz, milliy o'zligimizni tiklash maqsadida bunyod etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy ziyoratgohi kabi ulkan va noyob majmualar tufayli xorijiy sayyohlar oqimi yanada keskin oshishi kutilyapti. Xalqimizning ma'naviy salohiyatiga har tomonlama munosib bo'lgan bunday betakror obidalar aholimiz va jahon jamoatchiligi uchun yangi va jozibador maskanlarga aylanishiga shubha yo'q.

Energetik barqarorlikda hal qiluvchi davr

2025-yil energetika sohasida keskin burilish yili bo'ldi. Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlarida yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi natijasida iqtisodiyotda "yashil" energiya ulushi sezilarli darajada oshdi. Bu sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlab, energiya taqchilligi muammosini yumshatdi.

Uzoq vaqtgacha O'zbekistonda elektr energiyasi ta'minoti bilan bog'liq jiddiy muammolar borligi, ular keng quloch yozgani, yanada ayanchlisi, industrial rivojlanish hamda iqtisodiy o'sishimizga to'sqinlik qilayotgani yuqori doirada ochiqchasiga aytilmadi. Muammoni tan olish uchun, avvalo, siyosiy iroda kerak edi. Shavkat Mirziyoyev Prezidentligi davrida vaziyat tubdan o'zgardi. Mamlakat elektr energiyasi taqchilligi sharoitida yashayotgani davlat darajasida tan olindi. Energetika sohasini modernizatsiyalashga doir yaxlit dastur ishlab chiqishga kirishildi. Nihoyat 2019-yilda 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilindi.

Ushbu hujjat mamlakatimizda energiya ta'minoti manbalarini diversifikatsiyalash siyosatining tamal toshini qo'ydi deyish mumkin. Yana bir jihat. Quyosh va shamol generatsiyasiga o'tish tegishli infratuzilmani yaratishdan boshlanadi. Bu esa hazilakam ish emas. "Yashil" energetika juda qimmat soha. 2017-yilgacha O'zbekiston hozirgidek dunyoga ochiq mamlakat bo'lmagan. Iqtisodiyot tarmoqlari davlat tomonidan qattiq nazorat qilinardi. Bunday sharoitda yirik infratuzilmaviy loyihalar uchun xorijiy hamkorlarni jalb qilish, ularga qulay shartlar taklif etish mushkul edi. Investorlar biz bilan ishlashdan cho'chigan.

Endi Prezidentimizning o'zi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga mablag' tikayotgan tadbirkorlarni rag'batlantirmoqda. O'zbekistonda foto va gidroelektr stansiyalar, shamol generatorlari qurish uchun soliq imtiyozlari berildi. Shu ma'noda, mazkur yo'nalishda e'lon qilinayotgan tenderlarda doim o'nlab xorijiy kompaniya ishtirok etish istagini bildirayotgani bejiz emas.

Elektr energiyasi ta'minoti dunyo miqyosida dolzarb. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotiga ko'ra, hozir jahonda 1,3 milliardga yaqin aholi elektr energiya bilan ta'minlanmagan. 2,6 milliard odam ovqat tayyorlash uchun an'anaviy yoqilg'i — o'tin, ko'mir va boshqalardan foydalanadi. 2035-yilga borib jahonda energiyaga talab yana 35 foiz oshishi taxmin qilinmoqda.

E'tiborlisi, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib "yashil" energiyaga o'tish harakatiga qo'shildi. Mohiyatan olib qaraganda, olti yil avval qabul qilingan strategiya yurtimizning "yashil" taraqqiyot sari yuz burganini anglatadi. 2030-yilga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan. Bu kabi xayrli maqsadlarga erishishimizga shubha yo'q. Zero, Saudiya Arabistonining "ACWA Power", Turkiyaning "AKSA", "Cengiz Enerji", Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar", Xitoyning "China Energy", "Datang", "Sinoma", "Poly", "CNTIC", "Eagle Ray", Fransiyaning "EDF", "Vitalia", "Total Energies", Germaniyaning "Siemens Energy" va Qatarning "Nebbras" kompaniyalari mamlakatimizda yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirayotgani natijasida so'nggi yillarda energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9 ming megavatt yangi quvvatlar ishga tushirildi. Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan joriy yilda 85 milliard kilovatt-soatga yetdi.

Salkam 5 ming megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Jami generatsiya quvvatlarida "yashil" energiya ulushi bu yil 30 foizga yetkazildi.

Xususiy sektor, aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarida 2 ming megavattli kichik quyosh panellari o'rnatildi. Ularda shu yilning o'zida qo'shimcha ravishda 2 milliard kilovatt-



kambag'allikni qisqartirish faqat moddiy yordam berish emas, balki aholini tadbirkorlikka jalb qilish orqali amalga oshirildi. Har bir mahallada mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, aholiga yer, kredit va asbob-uskunalar ajratildi. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, bandligini ta'minlash hamda daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha "Sayxunobod", "Uychi" "Zarbdor" va "G'jdudov" tajribalari mamlakat bo'ylab to'liq yoyildi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan manzilli yordam tizimi raqamlashtirildi, bu esa mablag'larning haqiqiy muhojirlarga yetib borishini ta'minladi. Yil yakuniga ko'ra, kambag'allik darajasi bir xonali

1 million ayol ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish va daromad topish imkoniga ega bo'ldi. So'nggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholi zamonaviy kasblarga o'rgatilib, yuqori daromadli ishlarga joylashirildi.

Xotin-qizlarni jamiyatning faol a'zosiya aylantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xotin-qizlarga oliygohda o'qish uchun foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul ta'lim olish tizimi joriy etildi. Bugungi kunda talabalarimiz 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning o'zida 1 million 700 ming ayol ishi bo'lgani quvonarlidir. Kelgusi yilda ham "Raqamli avlod qizlari" dasturi doirasida 50 ming qiz AT, fintex va sun'iy intellekta o'qitiladi. Kelgusi yildan mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy sug'urta tizimi qamrovi keskin oshiriladi. Bu ularning kambag'allikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Qolaversa, 140 ming kambag'al oilaga shifokor biriktirilib, ularni yiliga bir marta to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Endi kafolatlangan tibbiy xizmatlar ko'paytiriladi, kambag'al oilalarning bunga sarf qiladigan xarajati ikki karra qisqartiriladi. Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash — kambag'allikka qarshi kurashda asosiy yo'nalishlardan biri. Imkoniyati cheklangan aholining kambag'allikka tushib qolish ehtimoli yuqori. Shu bois, ularni ko'lab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Munosib mehnat sharoiti yaratilgani uchun bu nigronligi bor 150 ming shaxs ishga joylashdi. Ularga hayotiy zarur tibbiy jihozlar bepul yetkazib berilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy ta'lim bilan qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim sohasida inson kapitaliga investitsiya kiritish 2025-yilning bosh shiori bo'ldi. Prezident maktablari standartlari oddiy maktablarga ham joriy etila boshladi. Xorijiy

raqamlarga tushishi uchun mustahkam paydevor yaratildi. So'nggi sakkiz yilda odamlarning haquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta'minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ulkan xayrli ishlar qilingan. Ijtimoiy muhojirlar tufayli 7,5 million aholi kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 2024-yilda 8,9 foizga tushirildi. 2025-yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan.

Albatta, qisqa muddatda bunday natijalarga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Yangi tashabbus va tajribalar sinovdan o'tkazildi. Dunyodagi ijobiy yutuqlar o'rganilib, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha yangi O'zbekiston modeli yaratildi. Xalqaro jamoatchilik bu modelni e'tirof etdi.

Avvalo, o'tish davrining muhim instrumenti bo'lgan manzilli ijtimoiy daftarlari joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi. O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun yetti ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirmoqda. Bunda, eng avvalo, kambag'al aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish o'rinlarini ko'paytirib, barqaror daromad manbai uchun sharoit yaratilmoqda. E'tiborlisi, davlat biznesga sharoit yaratib beryapti, tadbirkorlar esa o'ziga ijtimoiy mas'uliyat olib, ehtiyojmand aholini ishlari va daromadli qilishda ko'makchi bo'lmoqda.

Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning o'zida 270 mingdan ziyod kambag'al oila a'zosi doimiy ishlari bo'ldi. Odamlarning bilimni oshirmasdan, ularni kambag'allik girdobidan chiqarish imkonsizdir. Shu bois, sifati ta'lim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolga kambag'allikni qisqartirishning asosiy driveri bo'lib qoladi. Birgina misol, bolalarning bog'chalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida

Shu davrda oliy ta'limda ham keskin burilish yasilib, qamrov 9 foizdan 42 foizga yetkazildi. Ayniqsa, talabalarning 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani alohida e'tiborga sazovor. Hozirgi vaqtda dunyodagi top oliygohlarda o'zbekistonlik 2 mingdan ziyod talaba tahsil olmoqda. Ulardan 750 nafari "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali davlat hisobidan o'qimoqda.

O'tgan yili yurtimiz yoshlari TOP-500 talik oliygohlarga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni egalladi. Ayniqsa, farzandlari dunyodagi eng nufuzli universitetlarda ta'lim olayotgan ota-onalarning xursandligini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Bu, albatta, "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" ezu g'oyasining amaldagi ifodasidir.

So'nggi yillarda tibbiyot uchun mablag' 6 karra oshirilgani, sifati tibbiy xizmatlar mahallagacha tushirilgani ertangi kunga ishonchimizni oshiradi. Odamlar yuqori texnologik tibbiy xizmatlar uchun oldin faqat poytaxtga kelardi. Hozir bunday amaliyotlarning 400 dan ortig'i viloyat va tumanlarning o'zida bajarilmoqda.

Kasalliklarni profilaktika qilish, aholi o'rtasida sog'lom hayot tarzini qor topirishga katta ahamiyat qaratilayotir. Aholining turmush sharoitlari yaxshilanib borayotgani natijasida o'rta umr ko'rish darajasi 73,8 yoshdan 75,1 yoshga uzaydi. Tibbiy sug'urta tizimi bosqichma-bosqich butun mamlakat bo'ylab joriy etildi.

Davlat xizmatlarining 90 foizidan ortig'i raqamli shaklga o'tkazildi, bu esa byurokratiya va korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamaytirdi.

E'tibor tufayli yoshlarning ovozi, g'oya va tashabbuslari, kuch-g'ayrati barcha soha va tarmoqlarga chuqur kirib bormoqda. Bugungi kunda ular sanoat, servis, qishloq xo'jaligi, AT, ilm-fan, madaniyat va sportda katta yutuqlarga erishayotgani barchamizga g'urur bag'ishlaydi.

Futbol bo'yicha milliy terma jamoamiz mamlakatimiz tarixida ilk bor jahon chempionati

etildi. Mamlakatimiz tarixida birinchi marta zamonaviy ta'lim va bilim beradigan Futbol akademiyasi qad ko'tardi.

Shu yilning o'zida yoshlarimiz nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida 2 ta oltin, 8 ta kumush, 5 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. MDH mamlakatlari o'rtasida kimyo, matematika va iqtisodiyot, AT va geografiya bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan yoshlarimiz Uchinchi Renessans bunyodkorlaridir.

Xalqaro maydonda O'zbekiston ovozi tobora baland yangramoqda

O'zbekiston tashqi siyosatda ham benazir. Bugun O'zbekistonning ovozi mintaqaviy va xalqaro maydonda tobora baland yangramoqda. Yurtimiz jahondagi ko'plab nufuzli sammitlar, xalqaro forumlar o'tadigan siyosiy markazlardan biriga aylandi. Bu anjumanlar O'zbekistonning dunyo ahlini tinchlik va hamkorlikka chorlaydigan ezu da'vati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Eng avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhida aloqalarimiz sifat jihatidan yangi bosqichga chiqdi. MDH, SHHT mamlakatlari bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklik aloqalari yanada kengaydi. Taraqqiy etgan yirik davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, keng ko'lami sheriklik va amaliy aloqalar mustahkamlandi. "C5+1" formatida o'tkazilgan qator sammitlar buning yaqqol isbotidir.

Janubiy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Afrika mintaqasidagi mamlakatlar bilan yangi va istiqbolli yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlik uchun transport-logistika yo'liklarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Afg'oniston mintaqaviy va global xavfsizlikning muhim omili ekanidan kelib chiqib, ushbu davlat hukumati bilan konstruktiv va amaliy hamkorlik mustahkamlandi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuviga mezbonlik qilgan O'zbekiston mintaqadagi birlashtiruvchi kuch sifatida o'z mavqeyini mustahkamladi. "Markaziy Osiyo beshligi" formatidagi hamkorlik iqtisodiy ittifoq darajasiga yaqinlashdi. Ushbu maslahat uchrashuviga O'zbekistonning ham qo'shilgani uning nufuzini oshirdi.

Yaponiya, Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan strategik aloqalar yangi bosqichga chiqdi. Ayniqsa, "Markaziy Osiyo + Yaponiya" sammiti va unda qabul qilingan Tokio deklaratsiyasi mintaqaviy xavfsizlik va transport yo'liklarini rivojlantirishga muhim hujjat bo'ldi.

Umuman olganda, 2025-yil O'zbekiston uchun barqarorlik va yuksalish yili bo'ldi. Albatta, inflyatsiyani jilovlash, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muammolar (suv taqchilligi, chang bo'ronlari) kabi chaqiriqlar hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Biroq yil davomida amalga oshirilgan tizimli islohotlar O'zbekistonning nafaqat mintaqaviy, balki global iqtisodiy janjirlardagi o'zini mustahkamladi.

2026-yilga o'tar ekanimiz, mamlakat oldida turgan asosiy vazifa — erishilgan natijalarni saqlash va har bir fuqaroning hayotida real ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashdan iborat bo'lib qoladi. Erishilgan natijalar esa tarix sahifalariga muhrlandi. Ular yangi O'zbekiston solnomasiga zarhal harflar bilan yozilib, kelajak avlodlarga mustahkam paydevor va buyuk namuna bo'lib qolishi, shubhasiz.

Yangi O'zbekiston qurilishi aniq va adolatli maqsadlar, ulkan ishonch va mustahkam iroda asosidagi taraqqiyot yo'lidir. Bu yo'ldagi asosiy energiya manbai esa Prezidentimizning cheksiz salohiyati va fidoiyligidir.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish maqsadi allaqachon umummilliy g'oya sifatida shakllanib, ayni paytda ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ma'naviyat maskanlaridagi jadal amaliy sa'y-harakatlar timsolida yaqqol bo'y ko'rsatmoqda. Mana shu qizg'in va shukhli jarayondagi izchil o'zgarishlarning bir qismi sog'liqni saqlash sohasi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki rivojlangan, zamonaviy tibbiyotsiz sog'lom millat va xalqni, har jihatdan raso va to'kis genofondni tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz intilayotgan yangi uyg'onish davriga esa o'tkir tafakkur, sog'lom aql, barkamol vujud orqali yetib boriladi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

O'ZBEKISTON TIBBIYOT XABIGA AYLANMOQDA



Husniddinxo'ja HOMID XO'JAYEV,
“DAVO” klinikasi rahbari

2025-yil tibbiyot sohasidagi qizg'in tashabbus va sa'y-harakatlar yili sifatida ham tarixga muhrlanmoqda. Xususan, shu yil 7-may kuni Prezidentimiz raisligida tibbiyotning birlamchi bo'g'inini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste'molini tartibga solish hamda tibbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga doir hal qiluvchi vazifalar belgilandi. Jumladan, “Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar” dasturi boshlanishi e'lon qilindi. Mana shu tashabbus doirasida qator salmoqli natijalarga erishildi. Tizimni raqamlashtirish jarayonini davom ettirish, birlamchi bo'g'inini aholiga yaqinlashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlarda qilingan ishlar katta maqsadlar yo'lida mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Bu jarayonda davlat tibbiyot muassasalari bilan birga xususiy klinikalar ham faol ishtirok etdi. Chunki maqsad mushtarak va yagona — xalqimizning salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va samarali davolash orqali sifatli turmush darajasini ta'minlash. Mana shu maqsad yo'lidagi sa'y-harakatlar samarasi o'laroq Janubiy Koreya tajribasiga asoslangan, bemorni boshdan-oyoq tekshiruvdan o'tkazishni nazarda tutuvchi zamonaviy davolash-profilaktika tizimini ishga tushirdik. Odatda tirikchilik vaji tufayli ayrim yurtdoshlarimizning sog'lig'iga e'tibor bermagani, kasallikning oxirgi bosqichidagina shifokorga murojaat etganini tanqid qilamiz. Menimcha, bu xalqimizning chidamlilik, sabr-bardosh va matonat tuyg'ulari bilan bog'liq.

Azaldan bobo-momolarimiz biror joyi og'risa, darrov yotib olishni o'ziga lozim ko'rmagan. Farzandlarining salomatligi, bekam-

“**Prezidentimiz hozir tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiy sektor tomonidan ko'rsatilayotgani, ilg'or tashabbuslar ham ulardan chiqayotganini ta'kidlab, xususiy sheriklikni kengaytirish bo'yicha barcha takliflarni ko'rib chiqishga tayyorligini bildirgani XUSUSIY KLINIKALAR FAOLIYATIGA MUTLAQO BOSHQACHA STIMUL BERADI.**

ko'st voyaga yetishi haqida qayg'urgan. Bola-chaqasi uyli-joyli bo'lgach esa ularga iqtisodiy jihatdan og'iri tushishini istamagan. Hozir xalqimizning iqtisodiy holati ancha barqaror. Farzandlar ham ota-onalarining salomatligi, uzoq yashashi haqida qayg'urmoqda. Biz ishga



tushirgan yangi tekshiruv-profilaktika tizimi mana shunday yurtdoshlarimizning talab va istaklari hosilasidir. Qolaversa, bu davlatimiz yuritayotgan siyosat nechog'liq to'g'ri va adolatli ekanini ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 10-noyabr kuni tibbiyot va farmatsevtika xodimlari bilan o'tkazgan uchrashuvi sog'liqni saqlash sohasida avval berilgan topshiriqlar

ijrosini ko'rib chiqish, erishilgan natijalarni mustahkamlash va aniqlangan kamchiliklarni hal qilishning samarali usullarini yo'lga qo'yish borasida navbatdagi salmoqli qadam bo'ldi. Prezidentimiz sog'liqni saqlash sohasidagi yangilanish va o'sish ko'rsatkichlari xususida to'xtalar ekan, faoliyatimizga aloqador hamda bizni ruhlanitiradigan muhim jihati — tibbiyotda xususiy sektor ulushi ortib borayotganini alohida qayd etdi. Jumladan, so'nggi sakkiz yilda xususiy klinika va laboratoriyalar soni 3 karra ko'payib, 9000 ga, ulardagi shifo o'rinlari 57 mingga, shuningdek, ular ko'rsatayotgan tibbiy xizmat turlari esa 50 tadan qariyb 130 taga yetgani ta'kidlandi. Bugun xususiy klinikalar davlat shifoxonalari bilan tengma-teng turib, ayrim yuqori texnologik xizmatlar bo'yicha oldinga ham o'tib ketgani, masalan, jarrohlikda robot texnologiyalari ham birinchilardan bo'lib xususiy sektorda qo'llangani e'tirof etildi. Hatto xususiy klinikalarning zamonaviy apparatlarni samarali ishlatish tajribasini o'rganish kerakligi qayd etildi. Bu e'tirof ishlarimiz besamar ketmayotgani, yurtdoshlarimiz salomatligini saqlash va mustahkamlashga intilishimiz davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganining ifodasidir.

Davlatimiz rahbari qaysi soha rivoji haqida so'z yuritmasin, unda o'tkazilayotgan islohotlar markaziga xalqni rozi qilish masalasini qo'yadi. Jumladan, mazkur yig'ilishda ham Prezidentimiz masalaning shu jihatiga urg'u berarkan, bunday dedi: “Bugun odamlarning hayotga munosabati ham, talab va ehtiyojlari,

dunyoy qarashi ham tubdan o'zgardi. Bu boshqa sohalar qatori tibbiyotda ham sifati oshirish, zamonaviy yondashuvlar olib kirish bo'yicha oldimizga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Shu bois, tibbiyotda xalqning bahosini eshitadigan tizimni joriy qilamiz”.

Haqiqatan ham shunday: bugun odamlarning tibbiy xizmatga munosabati, talabi mutlaqo boshqacha. Eng ilg'or va zamonaviy muolaja xizmatlaridan foydalanishni istaydi. Bu esa barcha turdagi tibbiyot muassasalari jamoasidan ilm-fan yutuqlari bilan hamnafas va hamqadam bo'lish, davolashning eng samarali uslub va texnologiyalarini o'rganish va amaliyotga joriy etish, zamonaviy tekshiruv, tahlil qilish va tashxislash jihozlarini qo'llashni talab etadi. Busiz hech qaysi klinikaning faoliyati rivojlanmaydi va aholining tibbiy xizmatlarga talabini qanoatlantira olmaydi. Chunki ayni paytda sohadagi raqobat nihoyatda qizg'in. Mamlakatimizda tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan yuksak e'tibor, berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar tufayli klinikalar faoliyatiga har kuni yangilik kirib kelyapti. Davolashning yangidan-yangi usullarini yo'lga qo'yyapti. Mijozlar ishonchini qozonishga qaratilgan muttasil sa'y-harakatlar soha rivojlanishiga ijobiy ta'sir etyapti.

Prezidentimiz hozir tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiy sektortomonidan ko'rsatilayotgani, ilg'or tashabbuslar ham ulardan chiqayotganini ta'kidlab, xususiy sheriklikni kengaytirish bo'yicha barcha takliflarni ko'rib chiqishga tayyorligini bildirgani xususiy klinikalar faoliyatiga mutlaqo boshqacha stimol beradi.

Yig'ilishda xususiy tibbiyot klinikalarida ko'rsatilayotgan xizmat narxlari arzon ekanini, kelgusida ham tibbiyotda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va ularga qo'shimcha sharoitlarni yaratish davom ettirilishi ta'kidlandi. Xususan, kelgusi yildan tibbiy uskuna, jihoz va tez yordam mashinalarini olib kirish bo'yicha imtiyoz 3 yilga uzaytiriladigan bo'ldi. Umumiy ovqatlanish korxonalariga QQShning bir qismini qaytarish bo'yicha berilgan imtiyoz xususiy tibbiyot tashkilotlariga ham qo'llanadi. Zamonaviy ko'p tarmoqli klinikalarni tashkil qilish va ularni jihozlash uchun tadbirkorlarga 200 million dollarlik imtiyozli resurs ajratiladi. Bu mablag' kelgusi yildan boshlab tadbirkorlarga 7 yil muddatga 3 yil imtiyozli davr bilan 17 foiz stavkada beriladi. Bu imtiyozlar nihoyatda katta qo'llab-quvvatlov. Ularning ahamiyatini xususiy klinika rahbari sifatida men va boshqa hamkasblarim juda yaxshi bilamiz. Davlat nimaning hisobidan imtiyoz beradi? Albatta, o'z manfaatini, daromad manbaini boy

berish evaziga. Bu O'zbekiston o'z xalqining salomatligi, tansihatligi uchun hamma narsaga tayyor ekaniga yaqqol dalildir.

Uchrashuvda Prezidentimiz aytgan otashin jumlarlar yuragimda muhrlanib qoldi: “Men shifokor egnidagi oq libosni nafaqat kasb belgisi, balki Vatanga cheksiz sadoqat ramzi deb bilaman”.

Oq rang — poklik, musaffollik, halollik, rahmdillik, mehr-shafqat belgisi. Demak, egniga tibbiyot xodimi libosini kiygan inson mana shu fazilatlar qatori Vatanga, xalqqa, Prezidentga sadoqatni ham zimmasiga olgan bo'ladi. Biz jamoamizga professional, shu bilan birga, egnidagi libosga munosib xodimlarni qabul qilishga alohida e'tibor qaratamiz. Chunki shifokor, umuman, tibbiyot nafaqat shifo ulashuvchi, bemorlar dardiga darmon bo'luvchi yuksak malakali mutaxassis, balki shirinsuxan, xushmuomala, inson qadriini birinchi o'ranga qo'yuvchi mehr-shafqat sobibi bo'lishi ham shart. O'zim guvohi bo'lgan bir misolni aytib bermoqchiman. Yaqin tariximizda atrofimizdagi davlatlarda shifokor bo'lib ishlayotgan yurtdoshlarimizning mijosi ko'p bo'lgan. Xususiy klinika rahbari buning sababiga qiziqib qolgan. Chunki shifoxonadagi boshqa mutaxassislar ham yuqori malakali, hatto tajribali ham. Shunda bemorlar orasida so'rovnomma o'tkaziladi. Natijaga qarag: kelgan xastalarga o'zbek shifokorining xushmuomalligi, shirinsuxanligi ma'qul bo'lgan ekan. Kasal odamning ko'ngli nihoyatda nozik bo'ladi, sal narsani ham yuragiga yaqin oladi. Buni yaxshi bilgan va amal qilgan shifokorning ishi ikki karra oson bitadi: mijosi unga ishonadi va xastalikni tez yengadi. Hamkasblarim bilan muloqotda mana shu haqiqatni doim uqtiram.

Ayni paytda mamlakatimizning qo'shni davlatlar bilan yaqin aloqalari kun sayin mustahkamlanib, do'stona siyosat samarasi yurtimizdagi klinikalarga kelayotgan mijozlar sonida ham yaqqol ko'rinishmoqda. Birgina bizning klinikaga 2023-yil qo'shni davlatlardan 1861 ta, boshqa xorijiy mamlakatlardan 625 ta murojaat bo'lgan. Joriy yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 2328 va 863 tani tashkil etdi. Bu nafaqat bizga, balki o'zbek tibbiyotiga bildirilayotgan ishonch belgisi. Uni oqlash uchun yanada ko'p va ilimga tayanib, mehnat qilishimiz, o'qib izlanishimiz, zamonaviy meditsina yutuqlarini faoliyatimizga tatbiq etib borishimiz shart. Mamlakatimizni mintaqaning tibbiyot xabiga aylantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar sur'ati bizdan shuni talab qilmoqda.

KASBIY TA'LIM ISLOHOTLARI YOSHLAR UCHUN IMKONIYAT

Kasbiy ta'lim tizimi takomillashtirilishi, yoshlarning tinimsiz o'zgarib borayotgan bugungi mehnat bozoriga mos bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning muhim yo'nalishidir. Surxondaryo viloyatidagi texnikum va kollejlarda qaratilayotgan o'zgarishlar mazkur jarayon qanchalik zarur va ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Ayni paytda viloyatda 47 ta kasbiy ta'lim muassasasida 128 yo'nalish bo'yicha 28 ming 880 o'quvchi-talaba tahsil olmoqda. Ularning 11 ming 389 nafari xotin-qizlar. Viloyatdagi 32 texnikumda 18 ta kasb bo'yicha 3210 o'g'il-qiz dual ta'lim shaklida, ya'ni ham o'qib, ham ishlab amaliyotda tajriba orttirmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, ushbu muassasalarning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilanmoqda. Shuningdek, texnikum o'quvchilarini bandlikka jalb qilayotgan tadbirkorlarga imtiyoz berilmoqda.

Migratsiya agentligi tomonidan xorijiy ish beruvchilarning ishi kuchiga ehtiyojidan kelib chiqib, kasb va mutaxassislilik hamda xorijiy tillarga o'qitish bo'yicha buyurtmalar beriladi. 2026-yildan boshlab har yili Kasbiy ta'limni rivojlantirish jamg'armasiga texnikumlarning

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda kasbiy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa tadbirlar uchun respublika byudjetidan 600 milliard so'm miqdorida mablag' ajratiladi.

Qarorga muvofiq, Muzrabot tumani politexnikumi Surxondaryo ilg'or kasbiy mahorat texnikumiga aylantirildi. O'qish davrida amaliy mashg'ulotlarni ilg'or kasbiy mahorat texnikumlarida o'taydigan boshqa texnikum o'quvchilari bepul yotoqxona, oziq-ovqat va transport bilan ta'minlanadi. Bu politexnikumga mahalliy byudjet hisobidan 50 o'rinni talabalar turar joyi jihozlab berilishi uchun 300 million so'm ajratilmoqda. Darsdan tashqari yoshlarning



Yangicha yondashuvlar

vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida turli to'garaklar faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Muhimi, o'nlab kasbiy ta'lim darslarini bir joyda o'tish imkoniyati vujudga keldi. Shuningdek, darslar korxonalar bilan hamkorlikda tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, qarorga ko'ra, kasbiy ta'lim tizimini 2030-yilgacha isloh qilishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi. Jumladan, xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini kamida 250 taga yetkazish,

9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'limga qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga, kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga, kasbiy sertifikatga ega ishlab chiqarish ta'limi ustalari ulushini 30 foizga yetkazish, xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash dasturlarida ishtirok etgan pedagoglarni 100 nafardan 2500 nafargacha oshirish maqsad qilingan.

Milliy reytingda eng yuqori o'rinni egallagan 50 ta texnikumning har biri bazaviy hisoblash

miqdorining 3000 baravarida rag'batlantiriladi. 2026-yildan boshlab har yili texnikumlar o'quvchilari o'rtasida Prezident sovrini uchun “Kasbiy mahorat” milliy tanlovi o'tkaziladi. Bu esa yoshlarni nafaqat kasblarni puxta egallash, balki o'z ishiga mehr qo'yishga ham undaydi.

Texnikumlarda mehnat qilayotgan muallim va ustalarining malakasi, jamiyaddagi o'rni va nufuzini oshirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda texnikum o'qituvchilari uchun kasbiy sertifikatlash tizimi

joriy etilmoqda. Unga ko'ra, muallim va ustalar milliy sertifikat olsa, oylik maoshiga 30 foiz, xalqaro sertifikat olsa, 50 foiz ustama qo'shib beriladi.

— Keyingi yillarda yo'lga qo'yilayotgan dual ta'lim o'quvchi-talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkonini beradi, — deydi Termiz tumani qurilish va arxitektura texnikumi direktori O'rol Omonov. — Bunday jarayonda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy, 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi-talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maosh to'lanadi. Bugun ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar iqtisodiyotida juda katta o'rinda ega.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyatida 2026-2030-yillarda 36 ta texnikumda qurilish-ta'mirlash ishlari bajariladi, 4 ta texnikum rekonstruksiya qilinib, 32 tasi mukammal ta'mirlanadi.

Kasbiy ta'lim tizimi yangilanishi, mutaxassislar tayyorlashdagi zamonaviy yondashuvlar, dual ta'lim imkoniyatlari — barchasi yoshlar uchun keng yo'l ochib bermoqda. Eng muhimi, texnikum bitiruvchilari o'z yo'lini topgan, qo'lida kasbi, tajribasi va ish joyi mavjud mutaxassislari sifatida mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Bu esa yurtimiz taraqqiyotiga navbatdagi munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Qashqadaryoning YUKSALAYOTGAN SAYYOHLIK SALOHİYATI



Shahrisabzning ustun tarafi — yil davomida sayohatga borish mumkin. Buning uchun yo‘l, kommunikatsiya, mehmonxonalar qurilyapti. Endi xizmat turlarini ko‘paytirish haqida o‘ylash kerak. Masalan, Mirakiga borgan mehmon vaqtini qanday o‘tkazadi, nimalar xarid qiladi? Shu talablardan kelib chiqib, xizmatlar taklif qilish, bu yerning tabiati va sharoitini chet ellarda keng targ‘ib etish kerak degan edi davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatiga tashriflarining birida.



G‘ulom ABDIYEV,
Yozuvchilar uyushmasining
Qashqadaryo viloyati bo‘limi rahbari

Prezidentimiz joriy yilda viloyatga navbatdagi tashrifi chog‘ida ham aynan Shahrisabz tumanidagi Hisor tog‘ yonbag‘rida joylashgan sayyohlik hududlarida bo‘ldi. Bu safar islohotlar ijrosi, maqsadlar, rejalar samarasi ko‘zga yaqqol tashlandi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-noyabrda “Qashqadaryo viloyatining tog‘li-rekreatsion hududlarida zamonaviy xizmat ko‘rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida ulkan ishlar bajarilmoqda.

Bugun Qashqadaryo viloyatida 1468 ta moddiy-madaniy meros obyekti mavjud. Shundan 1197 tasi arxeologik yodgorlik, 208 tasi arxitektura, 35 ta monumental, 28 ta diqqatga sazovor obyektlar.

Kitob tumanida shu yilning o‘zida ikkita — Qaynar va Hazrati Bashir turizm qishloqlari tashkil etildi. Birgina Hazrati Bashir ziyoratgohiga 2024-yilda 135 ming kishi ziyoratga kelgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 150 mingga yetdi. Ularning 25 nafari chet el fuqarosi. To‘g‘ri, xorijlik sayyohlar soni juda kam, ammo bu manzil turistlar uchun endigina ochilganini hisobga olish lozim. Ziyoratgohga keluvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun 120 ta xonadonda mehmon uyi tashkil etildi va ro‘yxatdan o‘tkazildi. Bu bilan shu atrofda joylashgan Bodomzor, Koyni, Hazrati Bashir qishloqlarida 120 tadan 150 tagacha ish o‘rni ochildi va shuncha odam ish bilan band bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining mazkur qarori asosida Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida sayyohlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Umumiy 240 gektar maydonda 400 million dollarlik 117 ta loyiha amalga oshirilayotir. Natijada 1700 ta doimiy ish o‘rni ochildi.

Puxta o‘ylangan rejaga asosan, kafelar, kottej tipidagi dam olish uylari, sog‘lomlashtirish va oilaviy dam olish maskanlari, ekstrim park, oromgoh, motel va turizm komplekslari qurish uchun yer maydonlari auksionsga qo‘yildi.

savdo shoxobchalari mahalla ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi.

Ayniqsa, Mirakida yaqinda foydalanishga topshirilgan dor yo‘li yurtdoshlarimizga ham, xorijlik sayyohlarga ham birdek ekstremal kayfiyat baxsh etmoqda. Bu yirik loyiha “Miraki Ropeway” MCHJ buyurtmasi asosida “Gold Step Invest” MCHJ tomonidan amalga oshirildi. Loyiha qiymati 160 milliard so‘mni tashkil etib, dor yo‘li Avstriyaning mashhur Doppelmayr Seibahnen GmbH kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Dor yo‘li tizimida 7 ta mustahkam minor, 20 ta 8 o‘rinli Carvatech kabinasi mavjud bo‘lib, umumiy uzunligi 2084 metrni tashkil etadi. U har soatda 660 yo‘lovchini tashishi imkoniyatiga ega.

— Mahallamizda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan o‘zgarishlar bo‘lyapti, — deydi mirakilik mehnat faxriysi Tursun Murodov. — Zamonaviy mehmonxonalar, xostellar, agroturizm obyektlari, istirohat bog‘lari, dam olish maskanlari, sihatgohlar barpo etilyapti. Hamma xursand, kayfiyat ko‘tarinki.

Dor yo‘lining pastki bekatida suvenir do‘koni, kafe, tibbiyot punkti, ona va bola xonasi, bankomat, avtoturargoh, elektromobillarni quvvatlash stansiyasi joylashgan. Yuqori bekatda esa mehmonlar uchun umumiy ovqatlanish shoxobchasi, bolalar o‘yin maydonchasi,



tomoshah hududlari, selfi uchun maxsus joylar tashkil etilgan.

— Mirakida oilaviy dam olish uchun har yil kelimiz, — deydi Shahlo Izzatova. — Lekin bu yil kelib mutlaqo tanimadik. Juda katta o‘zgarishlar bo‘libdi. Ochig‘i, vaqtimiz qanday o‘tganini bilmay qolyapmiz. Qayiqda suv ombori bo‘ylab sayohat qilib, dor yo‘lida yuqoriga ko‘tarildik. Farzandlarim bilan bu sayohatdan katta taassurot oldik.

— Nafaqat Mirakida, balki viloyatimizning ko‘plab hududida turizmni rivojlantirish borasida salmoqli ishlar qilinayotir, — deydi “Kitob-sayyoh” xususiy sayyohlik korxonasi rahbari Ahad Berdiyev. — Albatta, bu manzilga ko‘plab sayyohlar kelishi uchun barcha imkoniyat mavjud. Mirakida ham suv, ham tog‘, ham musaffo havo bor. Tabiati ajoyib. Biz mana shu joylarni ham targ‘ib qilyapmiz. Sayyohlik tashkiloti rahbari sifatida yurtimizda turizm sohasida qilinayotgan ishlarni qadrlayman. Bu loyihalarning ortidan ko‘plab ish o‘rinlari ochildi.

Shahrisabz tumanining Uloch mahallasidagi 520 gektardan iborat adirra terrasida usulida uzum, gilos va olma ekilgan hamda o‘rmon barpo etilgan. Fransiyadan eng sara navlar

tog‘lardan boshqa joyni ko‘rsata olmasdik. Endi esa maqtanadigan joylar bisyor.

Bu obodliklar bir kunda barpo etilmadi. Buning ortida qancha mehnat, islohot bor. Wi-Fi nuqtalari tashkil etildi, turistik toifadagi transport vositalari xizmati yo‘lga qo‘yildi, yo‘l belgilari o‘rnatildi. Qisqasi, bu hudud jahon standartlariga mos manzil bo‘ldi. 2024-yil sentabrdan buyon haftasiga 2 marta Shahrisabz — Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha 17 kishilik samolyot qatnovi yo‘lga qo‘yilgan edi. Joriy yil may oyidan ATR 72-600 rusumli havo kemalari haftada 4 marta qatnayapti.

2025-yilda xorijiy davlatlarda targ‘ibot dasturlari va “Road show”lar tashkil etish, turizm forumlari va yarmakalarida qatnashish viloyat turizm salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Mahalliy turoperatorlar bilan hamkorlikda viloyatning ziyorat, ekizo, bano, gastro, tibbiyot va ekstremal turizm yo‘nalishlarida 70 ga yaqin turpaket o‘zbek, ingliz, rus tillarida ishlab chiqildi.

Shahrisabz tumanining Uloch mahallasidagi 520 gektardan iborat adirra terrasida usulida uzum, gilos va olma ekilgan hamda o‘rmon barpo etilgan. Fransiyadan eng sara navlar

ko‘chati olib kelib o‘tqazilgan. Yiliga 7500 tonna mahsulot yetishtirish imkoniyatiga ega majmuaing eksport quvvati 5 million dollarga teng. 100 ta doimiy va mingdan ziyod mavsumiy ish o‘rni ochildi. Ko‘chatlar rivojini fransiyalik mutaxassis kuzatib boradi, yoshlarga dehqonchilik sirlari, balki turlari yulduzlar o‘rgatadi. Hududda, shuningdek, 120 o‘rinli restoran va 100 o‘rinli mehmonxona qurilgan. Agroligistika va o‘quv markazi, qayta ishlash, saqlash quvvatlari qurilmoqda.

Qamashi tumanidagi “Maydanak baland tog‘” hududida keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari jadal davom etmoqda. Yaqin kelajakda bu go‘zal maskanga keluvchilar nafaqat tabiatning betakror manzaralaridan bahramand bo‘lish, balki turlari yulduzlar va osmon jismlarini kuzatish, ekologik turizm yo‘nalishida dam olish, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi.

Maydanak musaffo havosi, beqiyos tabiati va osmonning ravshanligi bilan sayyohlar uchun betakror maskandir. Rejaga asosan astronomiya parki, bolalar o‘yingohi, gastronomiya obyektlari, restoran va umumiy ovqatlanish joylari, premium tipdagi kottejlar, 1-2 qavatli mehmonxonalar va 200 o‘rinli mehmonxona hamda Glempling qurish ishlari uchun yer maydonlari auksion savdosiga qo‘yilib, qurilish ishlari boshlangan.

Bunday go‘zal manzillarni borib ko‘rish uchun asosiy yo‘llar qayta yotqizilmoqda. “Olmaota — Bishkek — Toshkent — Shahrisabz — Termiz” xalqaro avtomobil yo‘lining Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidan o‘tuvchi 60 kilometrli qismi to‘liq qayta qurilmoqda.

Mazkur loyihadan ko‘zlangan asosiy maqsad yo‘l infratuzilmasini zamonaviy talablarga moslashtirish, transport oqimini yengillashtirish hamda mintaqaviy va xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlashdan iborat.

Ayni paytda qurilish ishlari jadal bajarilaypti. Qurilishga ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy texnikalar jalb qilingan. Jarayonda xavfsizlik, sifat va ekologik me‘yorlarga qat‘iy rioya etilmoqda. Qurilish yakunlangach, ushbu yo‘l nafaqat mintaqadagi transport-logistika tizimini yengillashtiradi, balki haydovchilar va yo‘lovchilar uchun yanada xavfsiz, qulay va tezkor harakatlanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va hududlararo integratsiyani kuchaytirishda ham muhim omil bo‘ladi.

Mazkur qayta qurilish ishlari Prezidentimiz tomonidan yo‘l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy va xavfsiz yo‘llar barpo etish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning amaliy ifodasidir.

KICHIK SAHNANING KATTA VAZIFASI

Navoiy viloyatida sanoat, ijtimoiy sohalar bilan birga madaniy-ma‘rifiy jabhada ham yangi davr boshlandi. Buni viloyat tarixidagi ilk teatr misolida ham ko‘rish mumkin.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2023-yil 1-iyun kuni bolalar teatri ochildigan edi. Shu paytgacha viloyatda birorta teatr bo‘lmagan. U qisqa muddatda navoiyliklarning sevimli maskaniga aylandi. Bu yerda nafaqat bolalar, hatto kattalar uchun ham spektakllar namoyish etilmoqda.

— Teatrimiz jamoasi muntazam ijodiy izlanishda. Jarayonda katta teatrlar faoliyatini ham o‘rganyapmiz, — deydi Navoiy viloyati bolalar teatri direktori Bahriiddin Turdiyev. — Yaqinda O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatriga borib, tajriba almashib qaytdik. Teatrimizda tomoshabinlar uchun ham, ijodkorlar uchun ham barcha sharoit yaratilgan. Katta va kichik tomosha zallari mavjud. Viloyatda yagona teatr bo‘lgani uchun kattalarga ham spektakllar sahnalashtirypmiz. 2025-yil viloyatimizda “Alisher Navoiy yili” deb e‘lon qilingan edi. Shu munosabat bilan buyuk shoir bobomiz bolaligi aks etgan “Allomaning bolaligi” nomli spektaklni sahnalashtirdik. Bu asarni Samarqand, Jizzax va Buxoro viloyati teatrlarida ham namoyish etdik. Teatrimiz

ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida alohida dastur ishlab chiqilgan. Har chorakda yangi spektakl sahnalashtiramiz. Ijodkorlar doimiy ravishda rag‘batlantirib boriladi.

Prezidentimizning 2024-yil 22-noyabrda “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aholi ma‘naviyati yuksalishida sahna asarlarining o‘rni alohida ekanini qayd etilgan. Shu bois, teatrdan yuksak saviyadagi sahna asarlari yaratish, tomoshabinlarni teatrga jalb etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, otaxon teatrlar bilan hamkorlik asosida yaratilayotgan sahna asarlarini tomoshabinlar iliq kutib olyapti. — Hozir teatrimiz repertuarida tayyor

Madaniyat



12 ta spektakl bor, — deydi bolalar teatri bosh rejissyori Akmal Shodiyev. — Yaqinda

tayyorlangan “O‘n ikki oy” spektakli Madaniyat vazirligi huzuridagi badiiy

kengash a‘zolari tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilindi. Bundan tashqari, Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganimiz. Maktab o‘quvchilari teatrimizda amaliyot o‘taydi. “Ustoz-shogird” an‘anasi esa teatrijodkorlarini tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Avval poytaxtdagi oliyoghamlarning rejissura va aktyorlik fakultetini tamomlaganlar ham viloyatda teatr yo‘qligi bois, boshqa sohalarida faoliyat yuritishga majbur edi. Teatrimiz viloyat ijodkorlari uchun o‘z sohasida ishlash imkonini berdi. Qolaversa, ular bir joyda jamlanib, ijodiy muhit yaratildi.

Teatr jamoasi sahnalashtirayotgan har bir spektakl undayni o‘ylashga, mushohada yuritishga insonni o‘ylashga, mushohada ma‘naviyatiga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi. Hozir teatr jamoasi oldiga katta maqsadlar qo‘yib, turli mavzularda yangi spektakllarni sahnalashtirmoqda.

Albatta, har laha kichikintoylarda hayajon va hayrat uyg‘ota olish oson yumush emas. Navoiy viloyati bolalar teatri esa bunga erishmoqda. Jamoa ishtirokidagi tomoshalar bolalar qalbida yaxshilik, do‘stlik, jasurlik, qiyin paytlarda o‘zgalarga yordam berish kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Bunday asarlar yaratishning esa o‘ziga yarasha mashaqqatli jihati bor. Usta hunarmandlar spektakldagi obrazlarga mos qo‘g‘irchoqlar yasaydi, dizaynerlar ertak qahramonlari uchun maxsus liboslar tayyorlaydi.

— Navoiy viloyati bolalar teatri tashkil etilgandan buyon sahnalashtiruvchi rassom bo‘lib ishlayapman, — deydi Lobar Muzaffarova. — Sahna ortida ham juda ko‘p mutaxassis ishlaydi. Teatr, ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatri — jamoaviy mehnat mahsuli. Senariy tanlangach, jamoa bilan kelishib, eskizlar chiziladi. Badiiy kengash tasdiqlagandan keyin mato tanlanadi, obraz o‘ylanadi. Har biri uchun mutaxassislar ishlaydi. Liboslar tayyorlanadi. Bitta qo‘g‘irchoq tayyor holatga kelgunicha 20 ga yaqin mutaxassis ishlaydi. Aktyor ish jarayonida ularni “jonlantiradi”. Rassom bilan aktyor hamkorlikda ishlaydi. Masalan, aktyor qo‘g‘irchoqning bir joyi harakatlanishga noqulayligini aytasa, rassom uni qayta ko‘rib chiqadi.

Bolalar teatri bugun tom ma‘noda ma‘naviyat uyiga aylandi. Bu yer nafaqat bolalar, balki butun navoiyliklar uchun ma‘rifat maydoni, madaniy hordiq chiqarish maskani bo‘lib xizmat qilyapti.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1246.

34211 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etiladi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy